O‘zMU XABARLARI
ВЕСТНИК НУУз
ACTA NUUz

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2023
1/6/1

Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar turkumi

Bosh muharrir:
I.U.MADJIDOV – t.f.d., professor.
Bosh muharrir o‘rinbosari:
Y.S.ERGASHOV – f-m.f.d., professor.
Tahrir hay’ati:
Sagdullayev A.S. – t.f.d., akademik.
Ashirov A.A. – t.f.d., prof.
Balliyeva R. – t.f.d., prof.
Mallkov A.M. – t.f.d., prof.
Yusupova D.Y. – t.f.d., prof.
Murtazayeva R.H. – t.f.d., prof.
Mo‘minov A.G. – s.f.d., prof.
Nishonova O.J. – f.f.d., prof.
Abdulayeva N.B. – f.f.d., prof.
Madayeva Sh.O. – f.f.d., prof.
Tuychiyev B.T. – f.f.d., prof.
Utamuradov A. – f.f.n., prof.
Muxammedova D.G. – psix.f.d., prof.
Boltaboyev H. – fil.f.d., prof.
Rahmonov N.A. – fil.f.d., prof.
Shirinova R.X. – fil.f.d., prof.
Siddiqova I.A. – fil.f.d., prof.
Sa’dullayeva N.A. – fil.f.d., dots.
Arustamyan Y.Y. – fil.f.d., dots.
Pardayev Z.A. – fil.f.f.d., PhD.

Mas’ul kotib: **Z.A.PARDAYEV**

TOSHKENT – 2023

Сагдиева Ю. Эффективность психологического тренинга развития социально-психологической компетентности будущих педагогов-психологов ... 164
Salimova N., Bazarov S. Ona tili va o‘qish savodxonligi darslariga qo‘yiladigan talablar va orfografik mashqlar tizimi ... 168
Sattarkulov K. Akademik litseylarda “Kvant fizika” bo‘limini o‘qitishda o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda didaktik tamoyillaridan foydalanish ... 171
Safarov A. Yoshlar ma‘naviyati va mafkuraviy immunitetini mustahkamlashda ijtimoiy fanlar tarbiyaviy ta‘sirchanligini oshirish ... 174
Teshaboyev A. O‘zbekistonda mahalla institutini shakllanishi va rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy asoslari ... 178
Toshmatov O. Talabalarning mustaqil ta’lim kompetensiyasini shakllantirishda mobil ilovalardan foydalanish ... 181
Toshpulatova D. Biologik ta’limda o‘quvchilar kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning nazariy asoslari ... 184
Turdiboyev D. Xalqaro tadqiqot me’zonlari asosida fanlardan o‘quv materiallari ishlab chiqishning pedagogik tamoyillari ... 187
To‘xtayev B. O‘zbekistonda “Elektron parlament” tizimi asosiy rivojlanishi bosqichlari ... 190
Umarov F. Yo‘l harakati qoidalarini tushuntirishda fanlar integratsiyasining o‘rni ... 193
Umarova M., Kadirova M. Sharq mutafakkirlarining oilaga oid tasavvurlarni shakllantirish to‘g‘risidagi qarashlari ... 196
Farkhodova G. Modern applications for teaching foreign languages ... 199
Хасанова П., Ахмеджанова О. Методика преподавания русского языка как иностранного ... 202
Xudoyberdiyev E. Maktab ta’limi sifatini oshirishda strategik rejalashtirishning ahamiyati ... 205
Haydaraliyev Sh.O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va hamkorlikda ta’minlashdagi ahamiyati 209
Shabbozova D. Boshlang‘ich sinf savodxonlik darslariga shaxsiy qadriyatli yondashuv modeli ... 212
Shamshetova A. Orolbo‘yi mintaqasida ekologik muammolarini psixologik o‘rganish ... 215
Sharipov E. Talabalarni differensial tenglamalar fanidan mustaqil ishlarni tashkil etish usuli ... 219
Shodiyev H. Talabalarning geografiya fanlaridan mustaqil topsgiriqlarini baholash usullari ... 223
Shodmanov T. Texnika yo‘nalishidagi oliy ta’lim muassasalarida talabalarning axborot texnologik kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ... 226
Yusupova N. Oliy ta‘lim talabalarini fanlararo aloqadorlik asosida kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmuni ... 229
Yaxiyaxonova M. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tabiiy fan boblari tarkibidagi “Atrofimizdagi olam” mavzularini o‘rganishda “Ijodiy fikrlash” ko‘nikmalarini shakllantirish ... 232

Filologiya

Abdurashidova N. Chet tilini o‘rganish jarayonida talabalarning madaniy bilim va ko‘nikmalarining rivojlanishi ... 235
Adilbekova A. Exploring the impact of games in vocabulary teaching: a comprehensive literature review ... 238
Alimova G., Suvanova H. Tilning ijtimoiy tabaqalanishi – sotsiolingvistik xususiyatlari ... 242
Alimova Z. Diskurs tahlili, uning bosqichlari hamda bu boradagi dunyo olimlarining nazariy uslubiy yondoshuvlari ... 245
Artikova D. Ingliz va o‘zbek tillarida er-xotin munosabatlarini aks ettiruvchi maqollarning chog‘ishtirma tadqiqi ... 249
Asqarova J. Sehrli ertak personajlari ... 251
Asronova M. O‘zbek va ingliz diskursida paremiyalardan foydalanishning kognitiv-pragmatik mohiyati ... 254
Atamuratova N. Translation of english terms related to aethetic cosmetology into uzbek ... 257
Ashirova B. Xorijiy til fanlarni o‘qitish metodikasi hamda uni rivojlantirishning samarali usullari ... 260
Baxadirov J. Ingliz tilidagi tashqi ijtimoiy reklamaning funksional xususiyatlari ... 263
Jabbarov U. Study of emotional and expressive concept in comparative phraseological units ... 267
Zakirova O. O‘zbekistonda gender tengligi to‘g‘risidagi qonun – demokratiya asosi sifatida ... 270
Zaripova Z. Nemis tilini komikslar yordamida o‘rgatish ... 273
Zoirova A., Eshmirzayeva S. Fransuz tilida diffektiv fe’llarning leksik-semantik maydoni ... 276
Isaqova Z. Baho – falsafiy, mantiqiy va lisoniy kategoriya ... 280
Qosimov K. Fransuz tilini o‘rganishda grammatik bilimlarni mustahkamlashning ustuvor yo‘nalishlari ... 284
Muyassarov E. Fransuz tilida ekspressif – emotsional fe’llar ierarxik xususiyatlari ... 287
Rajabova R. O‘zbek bolalar adabiyotida tez aytishlar stilizatsiyasiga xos xususiyatlar ... 291
Rahmonova S. Tarjimaga funktsional yondashuv: diskursiv markerlarni funktsionalizm pozitsiyasidan tarjima qilish ... 294
Ro‘ziyev I. Til hodisalari tadqiqiga maydon nuqtayi nazaridan yondashuvlar to‘g‘risida ... 297
Saidqodirova D. Terminologik tizimda kompyuter va internet terminlari: tahlil va munosabat ... 300
Saydivaliyeva B. Og‘zaki nutqda tushunchalarning tipologik xususiyatlari ... 303
Sultanova Z. O‘zbek tilidagi nutqiy etiketning ijtimoiy xoslanishlari ... 306
Toshpo‘latova N. O‘zbek tilining frazeologik lug‘atidagi emotsional-ekspressiv munosabat ifoda etuvchi frazemalar tahlili ... 309
Tuxtaxodjayeva N. Kommunikatsiyaning badiiy matndagi noverbal komponentlari ... 312
Umirzakov U. O‘zbek va fransuz maqollarida kontrast haqida bazi mulohazalar ... 315
Filimonova L. To the question of the inter-language phenomenon "False friends of translator" and translation means of pseudointernationalisms ... 318
Xamdamova O. Hadis matnlarida mazmunning ifodalanishida dialogizm va monologizmlarning o‘rni ... 321
Xamidova D. Iqtisodiy terminlarni diaxron tadqiq etish va maxsus lug‘atlarni shakllantirish ... 324
Xamidova M. Noverbal vositalarning madaniyatlararo muloqotdagi mavqeyi ... 328
Xamrayeva N. Maqollar va ularning umumiy xususiyatlari ... 332
Xodjakulova F. Tilshunoslikda dinshunoslikka oid terminologiyaning o‘ziga xos xususiyatlari ... 335
Shadiyeva Sh. Tilshunoslik va ijtimoiy nuqtai nazardan madaniyatlararo muloqotning turli qirralari ... 338
Shukurova N. The stylistic and rhetorical functions of phraseological units in different genres of text ... 340
Egamova Ch. G‘arb tilshunosligida sifatlarni guruhlarga ajratish muammosi (ingliz tili misolida) ... 343
Eshpulatova O‘. Exploring the evolution of language: the role of linguistic borrowing and language contact in the development of modern english ... 346

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/6/1]
ISSN 2181-7324

FALSAFA
http://journals.nuu.uz
Social sciences

UO‘K: 37.026

Dilfuza SHABBOZOVA,
Termiz davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TerDPIning pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD L. Muxtarova taqrizi asosida

A PERSONAL VALUE APPROACH MODEL TO PRIMARY CLASS LITERACY LESSONS

Annotation

Understanding value approaches as moral ideals increases the conflict between sociality and individuality. In the conflict that has arisen, in turn, one becomes a victim instead of the other. However, a humane person acts according to the requirements of the moral ideal. Moral ideals, in turn, determine the level of development of a person and his achievements, which corresponds to the identity of a humanitarian person.

Key words: Value, upbringing, behavior, personality, conflict, educational activity, psychological-pedagogical.

МОДЕЛЬ ЛИЧНОСТНО-ЦЕННОСТНОГО ПОДХОДА НА УРОКАХ ГРАМОТНОСТИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотатсия

Понимание ценностных подходов как нравственных идеалов усиливает конфликт между социальностью и индивидуальностью. В возникшем конфликте, в свою очередь, один становится жертвой вместо другого. Однако гуманный человек действует согласно требованиям нравственного идеала. Нравственные идеалы, в свою очередь, определяют уровень развития человека и его достижений, что соответствует личности гуманитарного человека.

Ключевые слова: Ценность, воспитание, поведение, личность, конфликт, воспитательная деятельность, психолого-педагог.

BOSHLANG‘ICH SINF SAVODXONLIK DARSLARIGA SHAXSIY QADRIYATLI YONDASHUV MODELI

Annotatsiya

Qadriyatli yondashuvlarni axloqiy ideallar sifatida tushunish ijtimoiylik va shaxsiylik o‘rtasidagi ziddiyatni kuchaytiradi. Yuzaga kalgan ziddiyatda o‘z navbatida, biri boshqasining o‘rniga qurbon bo‘ladi. Biroq insonparvar kishi axloqiy ideal talablari asosida ishni amalga oshiradi. Axloqiy ideallar, o‘z navbatida, shaxs rivojlanish darajasini yutuqlarini shartlaydiki, bu esa aynan insonparvar kishining o‘zligiga to‘g‘ri keladi.

Kalit so‘zlar: Qadriyat, tarbiya, xulq-atvor, shaxs, ziddiyat, o‘quv faoliyat, psixologik-pedagogik.

Kirish. Jahonda amalga oshayotgan ijtimoiy-iqtisodiy globallashuv jarayoni ta’lim tizimida ko‘zga tashlanmoqda. Elementar bilimlar bilan qurollantirish hamda savodxonlikni oshirishda muhim bosqich hisoblangan boshlang‘ich ta’limga ham alohida e’tibor qaratib kelinmoqda. Boshlang‘ich ta’limga, ta’lim jarayoniga individual yondashuv muammosiga turli mamlakatlar ta’lim sohasi vakillarida turlicha yondashuv amalga oshirilayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, bugungi kunda rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida bola shaxsiga qaratilgan ta’lim texnologiyalari, boshlang‘ich isnf o‘quvchilari savodxonligini oshirish muammosi, ularning individual xususiyatlarini ro‘yobga chiqarish, qiziqishlari hamda ehtiyojlariga tayanish tendensiyalari ustunlik qiladi.

Dunyo ta’lim tizimida bolalarning bilim olish jarayoniga shaxsiy qadriyatli yondashuvni amalga oshirish boshlang‘ich ta’lim sohasidagi yangilanishlarning alohida ko‘rinishi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga tayanib, ta’lim jarayonida o‘quvchilarga qadriyatli yondashib, ularni qo‘llab-quvvatlab va rag‘batlantirish orqali rivojlantirish borasida tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Yevropa va yaqin xorij pedagogik soha izlanishlari natijasida yosh avlodning qadriyat yo‘nalishi bo‘yicha moddiy-pragmatik yondashuvga o‘tish jarayonida shaxs ma’naviyatida salbiy jihatlar ko‘payib borish havfi kuchli ekanligi aniqlanmoqda. Shaxsiy-qadriyatli yondashuvga asoslangan ta’limda o‘quvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari va shaxsiy qadriyatlari borasidagi izlanishlar muhim ahamiyatga ega.

Inson ehtiyojini qondira oladigan har qanday ob’ekt, jarayon yoki hodisa uning uchun qadrlidir. Qadriyatlar yo‘nalishlari insonning u boshdan kechirayotgan ehtiyojlari xususiyatiga qarab ma’lum qadriyatlarga yo‘naltirilganligini ifodalaydi. Muayyan qadriyatlarga e’tiborni qaratgan holda, inson o‘z xatti-harakatlarini ushbu qadriyatlarning xususiyatiga qarab quradi. Agar inson moddiy, moliyaviy farovonlikka (qadriyatga) kuchli ehtiyoj sezsa, u shunday farovonlikka erishishga harakat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadriyatlar shakllanishi muammosi ko‘p jihatli bo‘lib, u falsafiy-sotsiologik (S.F.Anisimova, A.G.Zdravomislova, V.I.Sagatovskaya, V.P.Tugariova, L.P.Fomina, M.I.Babneva, O.I.Zotova, V.L.Ossovskiy, Yu.Pismak, P.I.Smirnov, V.A.Yadov va boshqalar), shuningdek, psixologik-pedagogik ishlar (B.G.Anan’ev, G.E.Zalesskiy, A.N.Leontev, V.N.Myasищev, S.L.Rubinshteyn, E.A.Nesimova, Ye.N.Shiyanova, G.I.Xukina va boshqalar) da talqin etilgan. Bu tadqiqotlarda qadriyatlar muammosining xilma-xil jihatlari ko‘rib chiqilgan, “qadriyat” tushunchasining o‘ziga ta’riflar berilgan, ularning turlari va tuzilishi tahlil qilingan, rivojlanish darajalari, tarkib topishi xususiyatlari masalasi ko‘tarilgan. Har qanday kishi o‘ziga xos qadriyatlar yo‘nalishlariga xos bo‘lgan individual xususiyatga ega. Qadriyatga yo‘naltirish insoniyatning jamiyatdagi xulq-atvorining eng muhim regulyatori bo‘lib, uning o‘ziga, atrofdagi odamlarga, dunyoga bo‘lgan munosabatini belgilaydi.

Tahlil va natijalar. Pedagogning milliy va umuminsoniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati, atrofdagilar

va o‘quvchilar bilan amalga oshiradigan munosabatlari hamda unda shakllangan pedagogik madaniyat o‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda o‘ziga xos o‘rin egallaydi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish sohasida rang-barang pedagogik nuqtai nazarlar mavjud. Bunda qadriyatli munosabat tajribasi o‘quvchilar ma’naviy kamolotini ta’minlashi alohida e’tirof etiladi.

Xalqimiz tarixida alohida o‘rin egallagan “Ustoz-shogird” munosabatlari, atrofdagilarga nisbatan toqatli munosabatda bo‘lish, ularning fikrlarini bardosh bilan tinglash va qabul qilish, hayotbaxsh g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash, ezgulikka intilish, yaxshi amallarni egallash kabilar o‘zbek xalqi ijtimoiy tajribasidan o‘rin olgan muhim shaxsiy qadriyatli yondashuvning ko‘rinishlari hisoblanadi.

O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirish uchun muayyan nuqtai nazarlar yig‘indisi, yaxlitligi, munosabatlar turini ajratish lozim. Qadriyatli munosabatlar dastlab, farzandlar bilan ota-onalar, o‘quvchilar bilan o‘qituvchilar orasida vujudga keladi. O‘quvchilarda qadriyatli munosabat tajribasini shakllantirishda ma’naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadlaridan kelib chiqish lozim.

Qadriyatli yo‘nalishlar o‘qituvchi qiziqishlarining ko‘rsatkichlari, ehtiyojlari, qarashlari va kasbiy faoliyatini mujassamlashtiradi. O‘qituvchi tajribasining natijasi uning kelajakdagi faoliyati va xulq-atvorini belgilaydi. Har qanday fikr shaxsiy tajribaning tarkibiy qismi sifatida dastlab o‘qituvchining o‘zida tug‘ilishi lozim. Agar o‘qituvchining o‘zida shaxsiy qadriyatli munosbat tajribasi mavjud bo‘lmasa, u o‘quvchilarda mazkur tajribani hosil qila olmaydi.

Boshlang‘ich sinflarda o‘quv, o‘yin, mehnat, hordiq chiqari faoliyatning yetakchi turlari hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda uzluksiz ma’naviy tarbiya jarayonining o‘ziga xos imkoniyati sifatida: mazkur yetakchi faoliyat turlari jarayonida bolaning shaxsiy va ahloqiy sifatlarini shakllantirish; hayotiy xavfsizlik madaniyati to‘g‘risida tushunchalarni kengaytirib borish; kasb tanlash va kasblarning jamiyat hayotidagi o‘rni to‘g‘risida tasavvurlarni kengaytirish, mehnatga ongli munosabatni shakllantirish, uning inson hayotidagi rolini tushuntirish; kattalar tomonidan rag‘batlantiriladigan faoliyat turlarida o‘zini ko‘rsatishga intilishni rag‘batlantirish; muvaffaqiyatga erishish motivlarini mustahkamlash; o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatish; tengdoshlari bilan munosabatlar ta’sirining oshishi; milliy qadriyatlarni o‘rganish jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unlashuvi; qiziqishlari bo‘yicha hamfikr uyushmalarga jalb qilinishi nazarda tutiladi.

Pedagogik adabiyotlar tahlilidan ko‘ramizki, ta’limning maqsadi uning imkoniyatlaridan to‘g‘ri, o‘rinli va aniq foydalanish ko‘nikma va malakalarini hosil qilish, bolaning aqliy, ijodiy, mantiqiy tafakkurni rivojlantib borish, kommunikativ qobiliyatlarini oshirish, o‘quvchi ongiga milliy g‘oya hamda sharqona tarbiyani singdirish, tarbiyada qadriyat va an’analardan foydalanish, shaxsda barkamollik sifatlarini boyitishdan iboratligi ta’kidlangan.

Ta’limiy maqsad asosida o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, og‘zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o‘rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkoni paydo bo‘ladi.

Shaxsning xulq-atvori uning o‘ziga xosligini ifodalovchi muhim ko‘rsatkichdir. O‘quvchining tashqi xatti-harakatlari uning ichki holatlari haqida har tomonlama hukm chiqarish imkonini bermaydi. M.M.Baxtinning ta’biricha, shaxs xatti-harakatlar sub’ekti emas, balki xatti-harakatlar tizimining sub’ektidir. Shaxsning xatti-harakatlari haqidagi zamonaviy yondashuvlar ularni uyg‘un tarzda tahlil qilish lozimligi haqidagi nazariy xulosalarni ilgari surishga asos bo‘lmoqda.

Boshlang‘ich sinfda shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida savodxonlikni oshirishning texnologik modeli (2.1 rasm) da asosiy e’tibor 3-4 sinflarda o‘qish va ona tili darslaridan mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o‘quvchilarda: milliy, ma’naviy-axloqiy va shaxsiy qadriyatlarnin shakllantirishga qaratiladi. Model bo‘yicha mazkur jarayon uch bosqichda amalga oshiriladi.

Birinchi bosqichda boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarida pedagogik-psixologik diagnostik tadqiqot metodikalari (kuzatish, test, suhbat) orqali o‘qituvchilarning terminal va instrumental, shaxsiy qadriyatlari tizimi diagnostika qilinadi. Tadqiqot ishimizda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qadriyatlar shakllanishi, o‘qituvchining ustun qadriyatlariga bog‘liq bo‘lishini asosiy mezon sifatida qaraladi. Ayni paytda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida milliy, ma’naviy-axloqiy, shaxsiy qadriyatlari tizimining shakllanganligi diagnostika qilinadi.

Ikkinchi bosqich trening va o‘yinli texnologiyalar asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarda o‘ziga, odamlarga, Vatanga qadriyatli munosabatini tizimli rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, bu boradagi ishlar quyidagi uchta yo‘nalishda tashkil etiladi va barchasi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan shaxsiy qadriyatli yondashuv asosida olib boriladi:

- o‘quvchilarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantiruvchi pedagogik-psixologik vositalar asosida shaxsiy qadriyatlarni shakllantirish;
- o‘quvchilarda bilish faolligini oshirishning pedagogik-psixologik vositalari asosida milliy qadriyatlarni shakllantirish;
- o‘quvchilarda hissiy sezgirlikni oshirishning pedagogik-psixologik vositalari asosida ma’naviy-ahloqiy qadriyatlarni shakllantirishdan iborat.

Shakllantiruvchi bosqichda “Mikrofon, Men a’lochi o‘quvchi, Menga juda kerak, qadrli mashg‘ulotim”; “Men odobli o‘quvchi”; “Menga yoqadigan bayramlar, Avlodlar merosi” deb nomlangan yo‘nalishlarda to‘garak ishlarini tashkil etish, pedagogik-psixologik trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish, uyga vazifa berish amalga oshiriladi.

Mustaqil topshiriqlarni bajarish shakli va vositalari sifatida suhbat, viktorina, bahs-munozara, kitobxonlik kechalari kabilardan foydalaniladi.

Bugungi kunda o‘qituvchining tarbiyaviy faoliyatiga innovatsion jarayon sifatida yondashish taqozo qilinmoqda. Bu faoliyat o‘zida 3 ta muhim tarkibiy qismni mujassamlashtiradi: mustaqil fikrlash, ijodkorlikka asoslangan jarayonli hamda moyillikka asoslangan qadriyatli faoliyat ko‘rinishlari. Ta’lim-tarbiya jarayoni o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish jarayoni sifatida talqin etilar ekan, bunda o‘quvchilar ma’naviy shakllanish jarayonining sub’ekti sifatida namoyon bo‘ladilar. O‘qituvchi o‘zining pedagogik faoliyati davomida qadriyatlarni yaxshi bilishi, ularning ma’naviy-tarbiyaviy imkoniyatlarini tahlil qila olishi lozim. Bunda quyidagilarga alohida e’tibor qaratiladi: a) ijtimoiy-axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlarni bilish; b) pedagogik faoliyat maqsadiga moslashtirilgan vaziyatli, funksional yondashuvlarni o‘zlashtirgan bo‘lish; v) o‘qituvchining shaxsiy-kasbiy qiziqishlari, kasbiy faoliyati, tajribasini belgilovchi yondashuvlarning mohiyatini anglab yetishlar kabilar.

Xulosa. Tadqiqotdan olingan natijalar izlanishimiz boshida ilgari surilgan g‘oyalarimizning natijadorligini ta’minladi. Ular yuzasidan quyidagicha xulosalarni keltirish mumkin:

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari va o‘qituvchilarida o‘tkazilgan metodika bo‘yicha o‘zaro korrelyatsion aloqalari guruhlararo farq jihatdan bir-birlaridan katta daraja bilan farq qilmaganligini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining qadriyatlari tizimini o‘rganish orqali ularda bir qancha xususiyatlar, o‘qituvchilarning terminal qadriyatlar guruhidagi quyidagi 3 ta pozitsiyasi (qadriyat) sifatida, o‘ziga ishonch, sevgi, erkinlik, sodiq do‘stlar birinchi o‘rinni egallab, pedagoglar uchun bir vaqtning o‘zida pedagog kasbiy talab bo‘lgan (o‘quvchilarni sevish, fikr va so‘z erkinligi, ishonch) qadriyatlar ustun ekanligini kuzatish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari qadriyatli munosabatlarini shakllantirishning shaxslilik xususiyatlaridan yana bir sifat ko‘rsatkichi -“Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qadriyatlarini ijtimoiy o‘raganish so‘rovnomasi” natijalari bilan tavsiflash imkoni yaratildi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida qoidalarga amal qilish, ijtimoiy me’yorlarni buzmaslik, o‘z kuchini safarbar etish kabilar ma’lum darajada o‘quvchilarda boshlang‘ich ko‘nikmalarni egallaganligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 29 апрелдаги “Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими тизимини 2030 йилгача ривожлантиришконцепциясини тасдиқлаш тўғрисидаги ПФ – 5712- сонли Фармони. ПФ-5712-сон 29.04.2019. (lex.uz)
2. Mukhtarova L.A. Ways of formation of ecological culture in children of primary age // AJMR:Asian Journal of Multimensional Research Journal. Vol 10, Issue 4, April, 2021. - Pp 648-652. (Impact Factor 7.699).
3. Inomova M.O. “Oilada bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash”. T.: 2000 y.
4. Umarova M., Xamroqulova X., Tojiyeva R. "O’qish kitobi" darsligi. Toshkent, 2019.
5. Matchonov S., SHojalilov A., G‘ulomova X., SH.Sariyev, Z.Dolimov. "O’qish kitobi" darsligi. Toshkent, 2020.